KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

www.herald.kokanduni.uz

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDA “HAQIQAT” KONSEPTINING KOGNITIV VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Muminova Nasiba Solijon qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti Xorijiy til va adabiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD).
nasiba9095@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-2347-9353
DOI: https://doi.org/10.54613/jg7azm05

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 2-oktabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 5-oktabr 2026-yil
Jurnal soni: 19-B
Maqola raqami: 42

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

o‘zbek tili, ingliz tili, haqiqat, konsept, paramiya, kognitiv tilshunoslik, pragmatik yondashuv, tilshunoslikka oid bilim, ko‘nikma va malaka, lingvo

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida, xususan, paremiologik birliklarda “haqiqat” konseptining kognitiv-pragmatik xususiyatlari hamda uning tilshunoslikdagi konseptual maydonini strukturaviy jihatdan tavsiflash masalalari yoritilgan. “Haqiqat” konseptini ifodalovchi turli lisoniy vositalar tizimlashtirilib, ularning konseptual maydon doirasidagi markaziy, yaqin va uzoq periferik qatlamlari aniqlangan. Mazkur qatlamlarni shakllantiruvchi asosiy til birliklari va ularning mazmuniy xususiyatlari ko‘rsatib berilgan. Maqolaning xulosa qismida o‘zbek va ingliz tillaridagi paremiologik birliklarni takomillashtirish hamda ularni qiyosiy o‘rganish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Tadqiqotda “haqiqat” konseptining xalq tafakkurida shakllanishi, uning milliy-madaniy qadriyatlar bilan uzviy aloqasi hamda paremiologik birliklar orqali ifodalanish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, haqiqat konseptining semantik tarkibi, obrazli ifoda vositalari, aksiologik xususiyatlari va kommunikativ vaziyatlarda yuzaga chiqadigan pragmatik imkoniyatlari tahlil qilingan. O‘zbek va ingliz tillaridagi paremiologik birliklarni qiyosiy o‘rganish asosida mazkur konseptning umuminsoniy va milliy xususiyatlarini farqlash, uning lingvokognitiv mazmunini ochib berish hamda xalq og‘zaki ijodining madaniy merosni saqlashdagi ahamiyatini asoslashga yo‘naltirilgan ilmiy qarashlar bayon etilgan.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 2 October 2026
Approved: 5 October 2026
Volume: 19-B
Paper number: 42

KEYWORDS

Uzbek language, English language, reality, concept, paramia, cognitive linguistics, pragmatic approach, knowledge of linguistics, skills and competence, language

ANNOTATION

The article examines the cognitive-pragmatic features of the concept of “truth” as represented in Uzbek oral folklore, particularly in proverbial and paremiological units, as well as the structural description of its conceptual field in linguistics. Various linguistic means expressing the concept of “truth” are systematized, and their central, near-peripheral, and distant-peripheral layers within the conceptual field are identified. The main linguistic elements constituting these layers and their semantic characteristics are also described. The conclusion presents relevant proposals and recommendations for improving and further developing Uzbek and English paremiological units and for conducting their comparative study. The study also focuses on the formation of the concept of “truth” in national consciousness, its close relationship with cultural and moral values, and its manifestation through paremiological units. Furthermore, the semantic structure, figurative means of expression, axiological characteristics, and pragmatic functions of the concept in different communicative contexts are analyzed. Through a comparative study of Uzbek and English paremiological units, the research aims to distinguish the universal and culture-specific features of the concept of “truth,” reveal its linguocognitive content, and substantiate the role of oral folklore in preserving and transmitting national cultural heritage across generations.

Kirish

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rganishni rivojlantirish davlat siyosatining bir qismiga aylangan. Ayniqsa, “...davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish...” jarayonida paremiyalarni qiyosiy tadqiq qilish borasida chuqur izlanishlar olib borish kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shu jihatdan paremiyalarning kelib chiqishi, o‘ziga xos xususiyatlari, ularning milliy va madaniy jihatlarini aks ettirishning o‘zbek va ingliz tilidagi xususiy diskurslarda qiyosiy aspektda tekshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Dunyo tilshunosligida til-inson-jamiyat, til-inson-tafakkur, til-inson-madaniyat, til-inson-qadriyat munosabatlari turli aspektlarda o‘rganilmoqda. Falsafa negizida yuzaga kelgan aksiologiya masalalarining lingvistika mezonlari asosida talqin qilinishi aksiolingvistika yo‘nalishidagi tadqiqotlarga zamin yaratmoqda. Dunyo olimlari, tomonidan konseptosfera tushunchasini kognitiv tilshunoslikda keng qo‘llagan paremiyalarning qadriyat sifatida ko‘rinishi va uning madaniy merosni saqlash avloddan-avlodga o‘tkazishdagi vazifasi haqida ta’kidlaydi. Kognitiv konseptning ifoda vositalari bo‘lgan lug‘aviy birliklarning semantik taraqqiyoti, lingvokulturologik xususiyatlari, madaniy semalarini qadriyatlar negizida tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Konsept turlari, shakllanish omillari, voqelikni konseptuallashtirish, kategoriyalashtirish, tizimlashtirish, konseptlarning mental, kognitiv, lisoniy-madaniy, psixolingvistik xususiyatlari yuzasidan izlanishlar amalga oshirilmoqda. Tilshunoslikda har qanday paremiya – bu avlodlar tajribasini umumlashtiradigan va xalqning urf-odatlari hamda

an’analariga oydinlik kiritadigan fikrning mantiqiy shakli sifatida baholanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab paremiyalar turli xil tillarda o‘xshash yoki bir-biriga yaqin ma’nolarni ifodalaydi. Xususan, turli xil til guruhlarining maqol fondida u yoki bu shaklda do‘stlarga yordam berish, qariyalarni hurmat qilish, qarindoshlarini qo‘llab-quvvatlash va oila yaxlitligini saqlash zarurligi to‘g‘risida, shuningdek, mehnatning afzalliklari, yolg‘onning zarari, murakkab muammolarni birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan hal qilish zarurligi va boshqalar haqida so‘z yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy tilshunoslik sohasidagi global muammolar inson rivojiga destruktiv ta’sir etayotgan bir vaqtda, jamiyat hayotining barcha sohalarida haqiqat konseptining kognitiv pragmatik tadqiq etish, haqiqatning amaliy faoliyatdagi kognitiv ahamiyatini ochib berish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish hamda lingvistik-metodologik jihatdan tahlil etish zarurati vujudga kelmoqda. Respublikada til tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, komil inson konsepseyasini yangicha yondashuv asosida shakllantirish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, barkamol shaxs tarbiyasida haqiqat, adolat, ideallik kabi umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo‘lishi mavjud ta’lim-tarbiya tizimining ratsional imkoniyatlari bilan belgilanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son [1] “Taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari va 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Haqiqat konseptining kognitiv pragmatik tadqiq etish ilmiy-nazariy mohiyati, turlari va mezonlari, jamiyat hayotida tutgan ahamiyati borasida turli yo‘nalishlarda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu ma'noda, aynan mavzuga aloqador bo‘lgan ilmiy izlanishlar uch guruhga ajratildi: Demak biz konseptlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘.Q.Yusupov kontseptni shunday ta'riflaydi: “Kontsept - bu ongimizda mavjud bo‘lgan tashqari yo ichkari olamdagi biror buyum yo jarayonlar to‘g‘risidagi ilmlar majmuasi, ular to‘g‘risidagi ko‘rinish hamda unga nisbatan yaxshi, yomon yo neytral munosabatdir” [8]. D.U.Ashurovaning kontseptga bo‘lgan nuqtai nazari quyidagicha: “kontsept – bu uyg‘un birlik hosil qiluvchi mental tuzilma bo‘lib, u olam tasvirining yadroviy komponenti sifatida lingvomadaniy ahamiyatga ega bo‘lgan alohida shaxsga va butun jamiyatga tegishli bo‘ladi” [9, 32-b.]. Tilshunos Sh.Safarov kontsept tubida tushuncha, obraz hamda lisoniy mazmun yig‘indisi bo‘ladi, kontseptlar shaxs ongida vujudga keladigan har xil kategoriyalarning asosini tashkil qiladi va bularga asosiy tayanch vazifasini bajaradi”, - deb yozadi [10, 25-b.]. A.E. Mamatov kontsept strukturasiga va uning mohiyatiga e'tibor qaratib, shunday yozadi: “Kontsept murakkab stukturaga ega bo‘lib, bir tomondan, tushunchaning barcha qirralarini qamrab olsa, boshqa tarafdan uni madaniyatning bir ko‘rinishi sifatida ifoda etuvchi dastlabki omillar, ya'ni u yoki bu tushunchaning etimologiyasi, tarixi, hozirgi kundagi assotsiativligi, qadr-qimmatliligi, konnotatsiyalarini qamrab oladi. Kontsept – bu ma'lum sotsiumning ma'naviy yoki moddiy madaniyatini til belgilari bilan bog‘lab turadigan hodisa haqidagi bilimdir. Kontseptni bunday tushunish etnomadaniy maqsadga qaratilganlik xarakteriga ega bo‘lib, kontseptni go‘yo mental, falsafiy va psixologik sohadan qadriyatli madaniy sohaga o‘tkazadi” [11, 78-85-b.]. D.Agzamovaning qayd etishicha, insonning olamni bilish qobiliyati umumiy tamoyillarini bir mental mexanizmga jamlab tadqiq qilish jarayoni kognitiv tilshunoslikning vazifalarini o‘rganishga zamin yaratadi [12, 27-b.].

“Haqiqat” konseptining kognitiv va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, aksiolingvistika hamda paremiologiya yo‘nalishlarining o‘zaro integratsiyasi asosida shakllanayotgan muhim ilmiy masalalardan biridir. Mazkur konseptning nazariy asoslarini yoritishda, avvalo, konsept tushunchasining mohiyati, uning inson tafakkuri, milliy dunyoqarashi va lisoniy birliklar bilan munosabatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘.Q. Yusupov konseptni inson ongida mavjud bo‘lgan tashqi va ichki olamga oid bilimlar, tasavvurlar hamda ularga nisbatan shakllangan ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatlar majmui sifatida izohlaydi [8, 100-b.]. Olimning mazkur qarashlari “haqiqat” konseptini faqat lug‘aviy ma’no doirasida emas, balki insonning borliqni idrok etishi, voqelikni baholashi va unga munosabat bildirishini ifodalovchi murakkab mental tuzilma sifatida tadqiq etish imkonini beradi. Ayniqsa, xalq maqollarida haqiqat, rostlik, adolat va halollik tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi konseptning ko‘p qatlamli mazmunini namoyon etadi.

D.U. Ashurovaning konsept haqidagi ilmiy qarashlari ham mazkur masalaning lingvokulturologik mohiyatini ochishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchi konseptni olam manzarasining yadroviy komponenti bo‘lgan, alohida shaxs va butun jamiyatga tegishli mental tuzilma sifatida talqin qiladi [9, 32-b.]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi “haqiqat” konseptini milliy tafakkur, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish mumkin. Chunki xalq maqollari va matallarida haqiqat tushunchasi ko‘pincha adolatning qaror topishi, insoniy munosabatlarda samimiylik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik va vijdon oldidagi mas’uliyat kabi mazmuniy belgilar orqali ifodalanadi. Demak, konseptning mazmuniy tarkibi faqat muayyan so‘zning semantik xususiyatlari bilan chegaralanmay, xalqning tarixiy tajribasi va madaniy qarashlarini ham qamrab oladi.

Sh. Safarovning kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlarida konseptning shakllanishi va voqelanishi inson ongidagi bilimlar, obrazlar hamda lisoniy mazmun bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida izohlanadi. Muallif konseptning inson ongida turli kategoriyalarni shakllantirish va ularni tizimlashtirishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi [10, 25-b.]. Mazkur nazariy qarash “haqiqat” konseptining paremiologik birliklarda qanday kognitiv modellar asosida ifodalanishini aniqlash uchun metodologik imkoniyat yaratadi. Xususan, “Haq gap achchiq bo‘ladi”, “To‘g‘ri so‘z to‘g‘onni buzar” kabi maqollarda haqiqat inson tafakkurida muayyan baholovchi va obrazli modellar orqali shakllangan. Birinchi maqolda haqiqatning achchiq ta’m bilan ifodalanishi uning inson ruhiyatiga ta’sirini, ikkinchisida esa to‘g‘ri so‘zning to‘siqlarni bartaraf etuvchi kuch sifatida tasvirlanishi haqiqatning ijtimoiy munosabatlardagi ta’sirchanligini anglatadi. Shu jihatdan konseptning kognitiv tarkibini aniqlashda metaforik va assotsiativ munosabatlarni tahlil qilish muhimdir.

A.E. Mamatovning zamonaviy lingvistika doirasidagi qarashlarida konseptning murakkab strukturaviy tabiati, uning etimologik, tarixiy, assotsiativ, aksiologik va konnotativ xususiyatlari o‘zaro bog‘liq holda yoritiladi. Olim konseptni muayyan ijtimoiy guruhning moddiy va ma’naviy madaniyatini til belgilari bilan bog‘lovchi bilimlar majmui sifatida talqin qiladi [11, 71–102-b.]. Ushbu yondashuv “haqiqat” konseptining milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etishda alohida ahamiyatga ega. Zero, o‘zbek xalq maqollarida haqiqat tushunchasi ko‘pincha “haq”, “rost”, “to‘g‘ri”, “adolat”, “insof”, “vijdon” kabi leksik birliklar bilan mazmuniy munosabatga kirishadi. Ularning har biri

konseptning muayyan semantik qatlamini shakllantiradi. Masalan, “Haq egasini topadi” maqolida haqiqatning adolat bilan aloqadorligi, “Yolg‘onning umri qisqa” maqolida esa rostlikning vaqt davomida o‘z tasdig‘ini topishi haqidagi xalqona qarash mujassamlashgan. Shunday qilib, konseptning strukturaviy tahlili uning markaziy va periferik birliklarini aniqlash, semantik munosabatlarini tizimlashtirish imkonini beradi.

D. Agzamovaning kognitiv tilshunoslikka oid ilmiy izlanishlarida insonning olamni bilish va idrok etish jarayonlarini yagona mental mexanizm doirasida o‘rganish masalasi muhim o‘rin tutadi [12, 27-b.]. Ushbu qarashlar xalq og‘zaki ijodi namunalarida voqelikning konseptuallashuvi, milliy tajribaning til birliklari orqali ifodalanishi va paremiologik mazmunning shakllanish mexanizmlarini tushuntirishga xizmat qiladi. Xususan, maqollarda haqiqatning muayyan obrazlar, qarama-qarshi tushunchalar va baholovchi birliklar vositasida ifodalanishi insonning ijtimoiy tajribasi hamda kognitiv faoliyati bilan bevosita bog‘liq. “Haq” va “nohaq”, “rost” va “yolg‘on”, “to‘g‘ri” va “egri” kabi oppozitsiyalar konseptning mazmuniy chegaralarini belgilash bilan birga, xalqning axloqiy mezonlarini ham namoyon etadi.

“Haqiqat” konseptining pragmatik xususiyatlarini o‘rganishda ingliz tilshunosligida nutqiy aktlar, kommunikativ maqsad, muloqot strategiyalari va baholash vositalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham muhim nazariy asos hisoblanadi. J. Thomas pragmatikani til birliklarining real muloqot sharoitida qanday ma’no anglatishi, so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va tinglovchining mazkur ma’noni qanday anglashini o‘rganuvchi yo‘nalish sifatida yoritadi [5]. Ushbu yondashuv asosida paremiologik birliklarning faqat axborot uzatish vositasi emas, balki muayyan nutqiy vaziyatda tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish, uni ishontirish, ogohlantirish yoki xulosa chiqarishga undash vositasi ekanligini aniqlash mumkin. Masalan, “To‘g‘ri so‘z to‘g‘onni buzar” maqoli muloqot jarayonida rostgo‘ylikni targ‘ib qilish, haqiqatni aytishdan qo‘rqmaslikka undash va so‘zlovchining pozitsiyasini asoslash kabi pragmatik vazifalarni bajaradi.

B. Fraserning kechirim va nutqiy muloqotga oid tadqiqotlari nutqiy birliklarning muayyan kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq holda talqin qilinishiga e’tibor qaratadi [4, 259–271-b.]. Garchi mazkur tadqiqot bevosita “haqiqat” konseptiga bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, undagi nutqiy akt va kommunikativ vaziyat munosabatiga doir yondashuvlar paremiologik birliklarning pragmatik vazifalarini tahlil qilishda metodologik ahamiyatga ega. Chunki xalq maqollarining mazmuni ularning qo‘llanish vaziyati, so‘zlovchining munosabati va tinglovchiga qaratilgan kommunikativ maqsad bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, haqiqatni ifodalovchi maqollar ayrim vaziyatlarda tanbeh, boshqa holatlarda esa maslahat, ogohlantirish yoki axloqiy xulosa shaklida namoyon bo‘ladi.

J. Holmesning ingliz tilidagi kechirim ifodalari bo‘yicha olib borgan tadqiqotida nutqiy birliklarning ijtimoiy munosabatlar, kommunikativ vaziyat va so‘zlovchining pragmatik maqsadi bilan bog‘liqligi tahlil qilingan [3, 155–199-b.]. Mazkur tadqiqotdagi ijtimoiy-pragmatik yondashuvdan foydalanib, o‘zbek va ingliz tillaridagi haqiqat konseptini ifodalovchi paremiologik birliklarning muloqot jarayonidagi vazifalarini qiyosiy o‘rganish mumkin. Xususan, haqiqatni tasdiqlash, yolg‘onni rad etish, suhbatdoshni ogohlantirish va axloqiy pozitsiyani ifodalash kabi kommunikativ vazifalarning ikki tildagi o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash muhimdir.

E.Olshtain va A.Cohenning nutqiy aktlar doirasidagi izlanishlari ham kommunikativ birliklarning muayyan ijtimoiy vaziyatlarda bajaradigan vazifalarini o‘rganishga qaratilgan [2]. Ularning yondashuvi paremiologik birliklarning pragmatik mazmunini aniqlashda, xususan, so‘zlovchining munosabati va tinglovchiga ko‘rsatiladigan kommunikativ ta’sirni tahlil qilishda qo‘l keladi. A.J.Meierning muloyimlik nazariyasiga oid qarashlari esa muloqotda ijtimoiy me’yorlar, nutqiy odob va shaxslararo munosabatlarning o‘zaro aloqasini tushunishga yordam beradi [7, 5–22-b.]. Bu jihatlar haqiqatni ifodalovchi maqollarning nutqiy vaziyatga qarab turlicha pragmatik ma’no kasb etishini izohlash uchun muhimdir.

G.Chapman va J.Thomasning kechirim ifodalashga oid tadqiqotida kommunikativ munosabatlar, shaxslararo ishonch va axloqiy mas’uliyat masalalariga e’tibor qaratilgan [1]. Mazkur ish bevosita haqiqat konseptini o‘rganmagan bo‘lsa-da, unda yoritilgan shaxslararo munosabat va kommunikativ mas’uliyat masalalari haqiqat, samimiylik hamda ishonch tushunchalarining pragmatik talqinini kengroq anglashga yordam beradi. R.Fasoldning sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlari esa tilning ijtimoiy muhit bilan aloqasi, til birliklarining jamiyatdagi vazifalari va kommunikativ me’yorlarini o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi [6]. Ushbu yondashuvlar asosida o‘zbek xalq og‘zaki ijodida haqiqat konseptining ijtimoiy qadriyat sifatidagi o‘rni, uning avlodlararo uzatilishi va kundalik muloqotda qo‘llanish xususiyatlarini tahlil qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida “haqiqat” konseptining kognitiv va pragmatik xususiyatlarini aniqlash maqsadida tavsifiy, semantik, kontekstual, lingvokulturologik hamda qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot materiallari sifatida o‘zbek xalq maqollari, matallari, ertak va dostonlarida haqiqat, rostlik, adolat, to‘g‘rilik hamda yolg‘on tushunchalarini ifodalovchi til birliklari tanlab olindi. Semantik tahlil orqali mazkur birliklarning mazmuniy tarkibi va o‘zaro ma’no munosabatlari o‘rganildi. Kognitiv tahlil asosida “haqiqat” konseptining markaziy va periferik qatlamlari, obrazli ifodalanish shakllari hamda milliy-madaniy belgilari aniqlandi. Pragmatik tahlil yordamida paremiologik birliklarning muloqot jarayonidagi kommunikativ maqsadi, baholash, ishontirish, ogohlantirish va axloqiy xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan vazifalari yoritildi. Shuningdek, o‘zbek va ingliz tillaridagi paremiologik birliklarni qiyoslash orqali “haqiqat/truth” konseptining universal va milliy xususiyatlarini aniqlashga e’tibor qaratildi.

Natijalar

Xalq ogʻzaki ijodida haqiqat tushunchasi – bu shunchaki faktlar yigʻindisi emas, balki adolat, halollik, toʻgʻrilik va maʼnaviy poklik kabi tushunchalar bilan uzviy bogʻliq boʻlgan falsafiy va axloqiy tushunchadir. Xalq folklorida haqiqat doimo ezgulik tomonida turadi va har qanday yovuzlik, yolgʻon hamda adolatsizlik ustidan gʻalaba qozonishi shart boʻlgan oliy kuch sifatida talqin etiladi. Xalq ogʻzaki ijodining turli janrlarida haqiqat tushunchasi oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi:

- **Maqol va matallarda -** maqollar xalqning koʻp asrlik hayotiy tajribasi va falsafasini ixcham shaklda ifodalaydi. Ularda haqiqatning kuchi, uning yengilmasligi va ijtimoiy hayotdagi oʻrni yaqqol koʻrinadi:

“Haqiqat egiladi, bukiladi, lekin sinmaydi”. (Haqiqat vaqtincha qiyinchilikka uchrashi mumkin, ammo baribir gʻalaba qozonadi).

“Toʻgʻri soʻz tugʻonni buzar”. (Haqiqat har qanday toʻsiq va adolatsizlik devorini yorib oʻtishga qodir).

“Yolgʻonning umri qisqa”. (Haqiqat baribir ochilishi muqarrar ekanligiga ishora).

“Egri chiziq hamyonni yirtar, toʻgʻri chiziq – baxtni keltirar”.

- **Ertaklarda -** sehrli va hayotiy ertaklarda haqiqat tushunchasi “ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash” orqali ochib beriladi. Ertak qahramonlari (masalan, kenja batir, Dono qiz) koʻpincha yolgʻonchi, zolim shohlar, devlar yoki hasadgoʻy akalarga qarshi kurashadilar. Ertakning yakunida *haqiqat* va *adolat* tantana qiladi*:* yolgʻonchilar jazolanadi, haqiqat tarafida boʻlgan kamtarin va halol qahramon esa murod-maqsadiga yetadi. Bu xalqning “haqiqat baribir qaror topadi” degan qatʻiy ishonchini koʻrsatadi.

- **Dostonlarda -** qahramonlik va romanik dostonlarda (“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish”) haqiqat tushunchasi *yurtga, xalqqa bo‘lgan sadoqat va va'daga vafodorlik* bilan tenglashtiriladi. Alp yigitlar va el boshliqlari adolatli hukmdor sifatida namoyon bo‘ladi. Haqiqatni himoya qilish – vatan mudofaasi, oila nomusi va qabila sha'nini asrash bilan bir xil darajada muqaddas hisoblanadi. Yolg‘onchilik va xiyonat (masalan, Ultanoz yoki yovuz amaldorlar timsolida) eng og‘ir gunoh sifatida qoralanadi.

- **Latifalarda -** xalq latifalarida (masalan, Nasriddin Afandi latifalarida) haqiqat tushunchasi *piching, yumor* va *satira* orqali ifodalanadi. Afandi ijtimoiy hayotdagi adolatsizliklarni, qozilar va amaldorlarning yolg‘onchiligini o‘tkir so‘z va mantiqiy savol-javoblar bilan fosh qiladi. Bu yerda haqiqat ko‘pincha oddiy xalqning ko‘zi va tili bilan aytiladigan achchiq, ammo hayotiy haqiqatdir.

Konseptning voqelanishini, turli ichki va tashqi omillar bilan bog‘langan til, lison, nutq bog‘liqligidagi murakkab lingvokulturologik birlik sifatida ta’riflash mumkin. Haqiqat konsepti sifatida kimnidir vijdon erkinligi nuqtayi nazardan haqiqat izlash bilan bog‘liq leksik birliklarni nazarda tutsa, konseptosferada uning leksik-semantik birliklar, noverbal vositalar orqali voqe’lanishi, nutqiy vaziyat singari qator omillar ham nazarda tutiladi. Haqiqat konsepti bilan bog‘liq konseptosfera tahlil qilinganda keng mohiyatga ega quyidagi birikmalar aniqlandi: *Menga vaqt bering adolatni o‘rnataman, haqiqat bor, berilgan imkoniyatdan haqqoniy foydalanish, vijdon bilan yondashish, haqguylik.* Haqiqatning pragmatik konsepsiyasining gnoseologik manbalari kognitiv tilshunoslik konsepsiya manbalariga yaqin. Kognitiv tilshuinoslik nazariya tarafdorlari tilning faolligi ahamiyatini, til strukturasiga tayangan tajribalarning lingvistik fikrlashga bog‘liq bo‘lishida va subyekt oldida konseptuallashgan shaklda namoyon bo‘lishida deb bilishadi. Bunda tilning rivojlanishi ratsionallik tavsifga ega. Pragmatizm o‘zining boshlang‘ich mohiyatidir. Haqiqatning pragmatik konsepsiyasi faqat tarix mulki deb bo‘lmaydi. Hozirgi kunda pragmatizmning davomi va rivoji sifatida ko‘rish mumkin bo‘lgan nazariyalar mavjud. Pragmatizim tarafdorlari haqiqat konseptini anglashda amaliy tizimni ta’kidlab o‘tishadi, ularning fikricha, bu narsa haqiqatga erishish imkonini bermaydi.

O‘zbek xalq maqol va matallarida “haqiqat” konsepti asosan adolat, to‘g‘rilik, haq-huquq, mardlik va iymon-insof kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Xalq dunyoqarashida haqiqat shunchaki falsafiy kategoriya emas, balki kundalik hayot mezonidir.

Quyida o‘zbek maqollarida haqiqat konseptining asosiy ifodalanish yo‘nalishlari guruhlangan holda keltirilgan:

- *Haqiqat va to‘g‘rilikning yengilmasligi.* O‘zbek xalq ijodida haqiqat va adolat har qanday yolg‘on, zulm va hiyladan ustun kelishi muqarrar kuch sifatida ta’riflanadi. *Haq egiladi, ammo sinmaydi***.** Haqiqat vaqtincha qiyinchilikka uchrasa ham, butunlay yo‘q bo‘lib ketmasligini bildiradi.

- *Haq gapni aytish va mardlik.* Haqiqatni qo‘rqmasdan, yuz-xotir qilmasdan aytish haqiqiy mardlik va jasorat belgisi hisoblanadi. *Haq gap achchiq bo‘ladi.* (Insonlarga o‘zlari haqidagi haqiqatni eshitish og‘ir botishi haqida).

- *Haqiqatparvarlik va to‘g‘rilikning mukofoti.* Xalq maqollarida to‘g‘ri va haqgo‘y odamning yo‘li doimo ochiq bo‘lishi, uning hech qachon yutqazmasligi uqtiriladi. *To‘g‘ri yurgan to‘q yurar, egri yurgan o‘q yurar.*

- *Haqiqat va adolat mezoni.* Haqiqat tushunchasi ko‘pincha jamiyatdagi adolat, birovning haqiga ko‘z olaytirmaslik (halollik) bilan yonma-yon keladi. *Birovning haqi buyurmas. Haq egasini topadi.*

“Haqiqat” konsepti lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikda milliy mentalitet, dunyoqarash hamda muloqot qoidalarini aks ettiruvchi asosiy tushunchalardan biridir [1, 2-b].

Muhokama

Haqiqatning kognitiv xususiyatlarida yangilanishi haqiqat konseptining ochiq va yopiq tizimda namoyon bo‘lish xususiyatlari ochib berilgan. Umuman olganda, o‘z ichida muvofiqlashgan “kognitiv” linvodidaktik tizimi haqiqat konseptiga nisbat qilinadigan harakatlar majmuyidir. Bu yerda kognitiv-pragmatik yondashuv haqiqatga eltuvchi harakatda ziddiyatlarni bartaraf qilish “filologik tizimda yangidan kiritilayotgan da’voni o‘zgartirish yoki rad etish hisobigagina bajarilmaydi. Avval qaror topgan tizimning o‘zini ham o‘zgartirish mumkin. Haqiqatni qaror topishi tilning kognitiv nazariyasiga muvofiq “dallillash, asoslash” - bu lingvodidaktikada haqiqat konseptining, mavjud bo‘lgan ishonchlari tizimi (birgalikdagi) ichki kelishilgan tizim deb qaraladi. Biroq ishonch tizimi turli insonlarda turlicha bo‘lib, muvofiqlanmagan bo‘lishi ham mumkin. Bir tilda belgilangan (metatilda) va shakllangan haqiqat konseptini aniqlash boshqa tildagi (obyektivlik tili) iboralarning haqiqiyligini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Ana shu yo‘l bilan aniqlangan haqiqat konsepti boshqa biror tilda emas, aynan obyektivlik tilidagi haqiqat bo‘ladi. Obyektivlik tilining metatildan ajratilishini hisobga olib, haqiqatni semantik aniqlash shakli biz yuqorida ko‘rgan: “obyektiv tilida” “R” haqiqiy, agar va faqat R bo‘lsa ko‘rinishiga keladi. Demak, haqiqatni semantik aniqlashning asosiy natijasi uning kognitiv nazariyasidagi “yolg‘onchi paradoks”ni yo‘qotishga xizmat qildi va bunda biror tildagi iboralarning haqiqiyligi muammosini aynan shu til doirasida yechish mutlaqo mumkin emasligini mantiqiy isbotlab beradi. Ammo haqiqat nazariyasidagi boshqa muhim muammoni –ishonch, muammosini semantik nazariya bartaraf qilmaydi, uni birmuncha boshqa shaklga keltiradi.

Kognitiv xususiyatlari. Konsept maydoni: O‘zbek va ingliz tillarida “haqiqat / truth” konsepti o‘ziga xos mikromaydonlarga ega bo‘lib, u obyektiv borliqni, adolatni va ichki xotirjamlikni anglatadi.

Milliylik va universal belgilar: Haqiqat tushunchasi umuminsoniy xarakterga ega bo‘lsa-da, har bir xalqning milliy paremiyalarida (maqol, matal va iboralarda) o‘ziga xos tarzda moddiylashadi. Masalan, o‘zbek maqollarida haqiqat ko‘pincha o‘t, suv yoki achchiq ta’m obrazlari orqali kognitiv idrok etiladi.

Konseptual modellash: Uni tahlil qilishda kognitiv metafora va metonimiyalardan foydalanilib, inson ongida haqiqatning fazoviy va baholovchi qirralari ochib beriladi.

Pragmatik xususiyatlari. Kommunikativ ta’sir: Muloqot jarayonida “haqiqat” konsepti tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish, ishontirish, tanbeh berish yoki xulosa chiqarish pragmatik maqsadlariga xizmat qiladi. Paremiologik qoliplar: Maqol va matallarda bu konsept nutqiy strategiya sifatida namoyon bo‘ladi; u suhbatdoshni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, yolg‘ondan qaytarish vazifasini bajaradi [1]. Baholovchi konnotatsiya: Pragmatik jihatdan haqiqat ko‘pincha “og‘ir”, “achchiq”, lekin “ustun” kategoriyasi sifatida baholanadi va muayyan vaziyatda muloqot taktikasini belgilaydi.

Xulosa

Haqiqatni konsepti insonning ma’naviy o‘zini-o‘zi kamol topishiga, ongli ravishda o‘sib borishiga, bu hayotning turli sirlarini anglashiga yo‘l ochadigan hayotiy konsept bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham har bir inson dunyoda o‘z o‘rnini aniqlash uchun haqiqatni izlab, bilimini to‘ldirgani maqsadga muvofiqdir. Haqiqatning o‘ziga xos jihati shundaki, u obyektiv va subyektiv nuqtalarga ega. Haqiqatning subyektivligi uning insondan va insoniyatdan tashqarida mavjud emasligini anglatadi - haqiqat insonda tushuncha sifatida mavjud. Biroq, boshqa tomondan, haqiqatning mazmuni shaxsga va insoniylikka bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir. Ikkinchidan, haqiqatning yagona tushunchasi va mezonlarining yo‘qligi Kantga bilimning haqiqiyligi mezonlarini ochishni ijtimoiy fanlarning markaziy masalasi deb atashga asos berdi. Bu mezonlarni ochib berishda inson ongiga kiritilgan ma’lumotlar tabiiy va ijtimoiy obyektlarni o‘z holicha emas, balki shaxs tomonidan ular bilan o‘zaro munosabatda o‘zgarishi jarayonida ularni aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Garry Chapman, Jennifer Tomas. The five languages of aplogy. Northfield PG.-2006
2. Olshtain. E. and Cohen. A. (1983). “Apology: A Speech Act Set” (online). www.shinshuu.ac.jp/surcle.eu.html
3. Holmes, J. (1990). “Apologies in New Zealand English”. Language in Society, 19 (2), 155-199.
4. Fraser, B. (1981). “On Apologizing”. In F. Coulmas (Ed.), Conversation Routine: Exploration in Standardized Communication Situations and Prepatterned Speech. 259-271. The Hague: Mouton
5. Thomas. Jenny. (1995). Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics. London: Longman Group.
6. Fasold .R (1996). The Sociolinguistics of Language. Oxford: Blackwell Publishers
7. Meier, Ardith J. (2004). “Has 'Politeness' Outlived its Usefulness?” Views 13(1), 5-22.
8. Yusupov O‘.Q. Chog‘ishtirma tilshunoslikning yangi vazifalari. Xorijiy filologiya. – S.: 2011. – №3. – B.100
9. Ashurova D.U. Novie podxodi k lingvistike teksta. Xorijiy filologiya. – №3. – Samarkand.: 2011. – B.32
10. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.– B. 25.
11. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. –T.: “Noshir”. 2019. – B. 71-102.